O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI PASTDARG‘OM TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 9 - noyabr 482-7-101-Q/22 Pastdarg‘om tuman hokimligi

Tuman iqtisodiyoti tarmoqlarini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga kompleks tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida

Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyat hokimining 2022-yil 11-oktabrdagi 393-7-0-Q/22-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-sentabrdagi “Iqtisodiyoti tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’yektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga kompleks tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari (E.Ahmedjanov, M.Quziyev, A.Ahmedov), tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Nazarov, Q.Qarshiyev, D.Mamatqulov, X.Buriyev)lar zimmasiga iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’yektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan shaxsiy mas’uliyat yuklansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Nazarov, Q.Qarshiyev, D.Mamatqulov, X.Buriyev), sektor rahbarlari, tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini qo‘yidagilardan boshlasin:

tuman aholisini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun tuman markazi va dehqon bozorlarida oziq-ovqat yarmarkalarini tashkil etish;

“Temir daftar”ga kiritilgan oilalarga ko‘mir, suyultirilgan gazni o‘z vaqtida yetkazib berish va bolalarni issiq kiyim-kechak bilan ta’minlash;

olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda ko‘mir va suyultirilgan gaz hamda 15-20 kunga yetadigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zahirasini yaratish.

4. Tuman iqtisodiyoti tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’yektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq;

tuman iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy soha ob’yektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Qo‘yidagilar tuman komissiyasining asosiy asosiy vazifalari etib belgilansin:

bir hafta muddatda tegishli tuman tashkilotlari va korxonalar rahbarlaridan iborat tuman ishchi guruhini tashkil etib, ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni mahallalar kesimida belgilab berish;

har bir mahallalardan aholining murojaatlarini qabul qilish va ularni tezkor ko‘rib chiqilishini ta’minlash bo‘yicha har bir soha idoralarida tunu-kun ishlaydigan aloqa tizimini ishga tushirish;

har bir mahallada xalq bilan muloqot tarzida o‘tkaziladigan uchrashuvlarda mazkur qaror bilan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talofatsiz o‘tkazish bo‘yicha belgilab berilgan parametrlarning bajarilishi yuzasidan aholiga hisobot berib borish tizimini yo‘lga qo‘yish;

tumanda ku-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni betalofat o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan viloyat shtabiga kunlik ma’lumot taqdim etib borish.

6. Tuman xalq ta’limi bo‘limi (N.Saparova), maktabgacha ta’lim bo‘limi (M.Bekova), tuman tibbiyot birlashmasi (D.Kamalova), tuman turizm va sport bo‘limi (M.Ne’matov), tuman madaniyat bo‘limi (A.Xudayberdiyev)lar ijtimoiy soha ob’yektlarini, jumladan maktabgacha ta’lim, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash muassasalari, madaniyat va sport ob’yektlarini kuz-qish mavsumidan betalofat o‘tkazish yuzasidan manzilli tadbirlarni belgilasin va ularning amalga oshirilishini ta’minlasin;

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Nazarov), tuman moliya bo‘limi (A.Karimov)ga muhandislik-kommunikasiya ob’yektlari va texnologik uskunalarni

mavsumga tayyorlash hamda ijtimoiy soha ob’yektlarini kuz-qish davridan betalofat o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun joriy yilda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan kerakli miqdorda mablag‘ ajratish choralarini ko‘rsin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali Pastdarg‘om tuman bo’limi (A.Ashurov), “Tuman elektr ta’minoti korxonasi” (A.Kandaharov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartish bo‘limi (A.Mamadaliyev)lar bilan birgalikda aholiga, ijtimoiy soha ob’yektlariga, boshqa toifadagi iste’molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo‘yicha muntazam ravishda “mahallabay” tizimda o‘rganishlar olib borib, ajratilgan resurslarni yetkazib berish choralarini ko‘rsin.

9. Tuman komissiyasi (Q.Qarshiyev):

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talafotsiz o‘tkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obeyktlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat komissiyasiga kunlik ma’lumot taqdim etib borsin;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talafotsiz o‘tkazish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borilishini;

tuman sektor rahbarlari tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari bo‘yicha viloyat televideniyasida “Ochiq muloqot” hamda brifinglar o‘tkazib borilishini ta’minlasin.

10. Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Yuldashev), “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali Pastdarg‘om tuman bo’limi (A.Ashurov), “Tuman elektr ta’minoti korxonasi” (A.Kandaharov)larga:

tumanda, ayniqsa olis va borish qiyin bo‘lgan hududida aholini suyultirilgan gaz va ko‘mir yoqilg‘isi bilan o‘z vaqtida ta’minlash;

hududdagi ijtimoiy soha ob’yektlari, ularga xizmat ko‘rsatuvchi qozonxonalar, suv inshootlari va nasos stansiyalarini uzluksiz elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta’minlash;

transformator nimstansiyalarini ta’mirlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash, aholiga zarur miqdorlarda tabiiy va suyultirilgan gaz yetkazib berish hamda joylarda ko‘mir mahsulotlarining g‘amlanishi bilan bog‘liq muammolarni o‘z

vaqtida hal etish uchun tuman hududida muntazam ravishda aholi bilan uchrashuvlar o‘tkazib borish choralarini ko‘rsin.

11. Tuman hokimligi Axborot xizmati (O.Sonniboyev), “Pastdarg‘om haqiqati” gazetasi (B.Shukurov)larga kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni talafotsiz o‘tkazish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti va gazeta sahiflarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Qarshiyev zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi **Sh.Xudayberdiyev**

Pastdarg‘om tuman hokimining
2022 yil 9 noyabrdagi
482-7-101-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman iqtisodiyoti tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’yektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha kompleks

CHORA-TADBIRLARI

№	Choratadbirlarnomi	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar
	I.Tashkiliy chora-tadbirlar		
1.	2022/2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha hududlarni “qizil”, “sariq” va “yashil” hududlarga ajratish. Bunda aholi punkitlarin “qizil” hududga kiritishda elektr energiyasi vav tabiiy gaz ta'minotidagi muammolar mavjud uy-joy mulkdorlari shirkatlarning moddiy-texnika bazasi va moliyaviy xolati “og‘ir” Xalq qabulxonalariga kommunal xizmatlar yuzasidan ko‘p murojaatlar kelib tushgan, shuningdek , olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarni nazarda tutish.	Bir hafta muddatda	Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (B.Xasanov), “Samarqand suv ta’minoti” MCHJ tuman filiali (B.Xudoynazarov), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om bo’lim (A.Ashurov), Pastdarg‘om tuman elektr ta’minoti korxonasi (A.Kandaharov)
2	Tuman aholi yashash punktlarida: ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, shu jumladan kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari hamda ijtimoiy soha ob’yektlarining **issiqlik ta’minoti qozonxonalari, muhandislik-kommunikasiya ob’yektlari va jihozlarini ta’mirlash** bo‘yicha; aholiga **suyultirilgan gazni** (ovqat pishirish uchun) uzluksiz yetkazib berish, ularni **ko‘mir va ko‘mir briketlari** bilan ta’minlash bo‘yicha mas’ul ijrochilar va bajarish muddatlarini aniq belgilagan holda zarur chora-tadbirlar kurish	Uch kun	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Yuldashev), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (B.Xasanov), “Samarqand suv ta’minoti” MCHJ tuman filiali (B.Xudoynazarov), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov), Pastdarg‘om tuman elektr ta’minoti korxonasi (A.Kandaharov)

3.	Iqtisodiyot tarmoqlarini 2022/2023 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan **suyultirilgan gaz va ko‘mir** yetkazib berish bo‘yicha zaruriy choralarni ko‘rish.	2022-yil oktyabrь va mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov)
4.	Maishiy gazdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan favqulodda hodisalarning oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni amalga oshirish.	2022-yil oktyabr va mavsum davomida	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (I.Abdullayev), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov)
5.	Ishlab chiqarish va yetkazib berish balansini hisobga olgan holda, 2022 yil oktyabr oyidan 2023 yil aprel oyiga qadar bo‘lgan davr mobaynida **ulgurji iste’molchilar va aholiga tabiiy gaz yetkazib berish bo‘yicha kelishilgan oylik jadval** ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil oktyabrь	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov)
	II.Yoqilg‘i-energetika majmuasini barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar		
6.	Asosiy muhandislik-kommunikasiya tarmoqlari hamda texnologik uskunalarni kapital va joriy ta’mirlash, jumladan: “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg'om tuman bo'limining **1.2 km gaz tarmog‘ini mukammal ta’mirlash**, **5 ta gaz taqsimlash punktini** kapital ta’mirlash, **91 km gaz quvurlarini** bosim ostida sinash va tozalash, **40 km yer osti quvurlarini** maxsus priborlar yordamida tekshirish, **19 km gaz** quvurlarini buyash hamda **766 ta gaz taqsimlash punktini** taftishdan o‘tkazish; Pastdarg'om tuman elektr ta’minoti korxonasining **394,4 km** past kuchlanishli **elektr tarmoqlari** va **115 ta transformator punktini** mukammal hamda **539,2 km** past kuchlanishli **elektr tarmoqlari** va **164 ta transformator punktini** joriy ta’mirlash.	2022 yil 1 noyabrga qadar	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov), Pastdarg‘om tuman elektr ta’minoti korxonasi (A.Kandaharov)

7.	Kuz-qish davrida qozonxonalarning uzluksiz va barqaror ishlashini ta’minlash maqsadida soha tashkilotlari tomonidan zarur **suyuq va qattiq yoqilg‘i zaxirasini** yaratish.	2022 yil 1 noyabrga qadar	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov)
8.	Aholi, ijtimoiy soha ob’yektlari va iqtisodiyottarmoqlarining **ko‘mirga** bo‘lgan talabini to‘liq qanoatlantirish.Jumladan: -Aholiga **15 045 tonna ko‘mir jamg‘arish;** -ijtimoiy soha ob’yektlariga **4 105 tonna** ko‘mir yetkazib berilishini tashkil qilish.	2022/2023 yillar kuz-qish mavsumida	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Qarshiyev, U.Nazarov), tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Yuldashev)
9.	Tuman hokimligida shakllantirilgan ro‘yxat asosida kuz-qish davrida tabiiy gaz ta’minotining tanqisligi kutilayotgan aholi punktlariga **tasdiqlangan oylik jadvalga** asosan kuz-qish mavsumida **77000 ta xonadonning 26000 tasi tabiiy gaz bilan, qolgan 51000 tasini esa suyiltirilgan gazni kafolatlangan tarzda** yetkazib berish.	2022 yil oktyabr oyidan 2023 yil 1 aprelga qadar	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov)
10.	Olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda hamda sel kelishi oqibatida yo‘llar talofat ko‘rishi ehtimoli mavjud qishloqlarda kuz-qish mavsumi uchun zkrur miqdolda yoqilg‘i energetika resurslarini zaxirasini yaratish.	2023-yil 1-yanvar	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov)
	III. Ko‘p kvartirali turar joy fondini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar		
11.	Tumandagi ko‘p kvartirali uy-joy fondini taьminlash ishlari bo‘yicha haqiqiy ehtiyojini hisobga olgan holda joriy yilda moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlar va uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qullab-quvvatlash uchun tegishli manbalardan talab etiladigan mablag‘larning aniq miqdorini belgilash.	Zaruratga ko‘ra	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Qarshiyev, U.Nazarov), tuman Moliya bo‘limi (A.Karimov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (B.Xasanov), “Pastdarg‘om kommunalchi” boshqaruv kompaniyasi (Sh.Amanov)

12.	Ko‘p kvartirali uylar, bino va inshootlarning yong‘inga qarshi xavfsizlik texnik me’yorlariga mosligi holatini tekshirib, ko‘p kvartirali uylardagi **dudbo‘ronlarni va ventilyasiya tizimlarini ta’mirlash**, izolyasiya qilish va tozalash ishlarini amalga oshirish.	Ikki kun	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev),tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (B.Xasanov), “Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman bo’lim (A.Ashurov)
13	Markazlashtirilgan issiqlik taьminoti tizimiga ulangan ko‘p kvartirali uylarni xatlovdan o‘tkazish va mavsumda ushbu uylarni isitish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil 1-noyabr	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev),tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (B.Xasanov),
14.	Iste’molchilarni ishonchli va xavfsiz elektr energiyasi bilan ta’minlash maqsadida **ko‘p kvartirali uylarda elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish** qoidalariga rioya etilishi holatinio‘rganishva mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Ikki kun	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), Pastdarg‘om tuman elektr ta’minoti korxonasi (A.Kandaharov), tuman Uy-joy kommunal xizmatko‘rsatish bo‘limi (B.Xasanov)
	IV. Ichimlik suvi ta’minoti ob’yektlarini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar		
15.	Suv ta’minoti korxonalarining **9,2 km suv** tarmog‘ini va **12 ta nasos** uskunalarini mukammal va **4,0 km suv** tarmog‘i va **3 ta nasos** uskunalarini joriy ta’mirlash.	2022 yil 1 noyabrga qadar	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), “Samarqand suv ta’minoti” MCHJ tuman filiali (B.Yuldashev)
	V. Ijtimoiy soha ob’yektlarini barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar		
16.	Ijtimoiy soha ob’yektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish. Jumladan: **21** ta umum ta’lim maktablari va **14** ta maktabgacha ta’lim tashkilotini joriy ta’mirlash; Shuningdek, sog‘liqni saqlash, kasb-hunar maktablari hamda boshqa muassasalarda, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan barcha zarur choralarni ko‘rish.	2022 yil oktyabr	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Qarshiyev, D.Mamatqulov), tuman Xalq ta’lim bo‘limi (N.Saparova), tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi (M.Bekova), tuman tibbiyot birlashmasi (D.Kamalova), Turizm va sport bo‘limi (M.Ne’matov), Madaniyat bo‘limi (A.Xudayberdiyev)

17.	Byudjet tashkilotlarining ko‘mirda ishlaydigan qozonxona va isitish tizimlarining **kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatini o‘rganib**, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarni ishlarini amalga oshirish.	2022 yil oktyabrь	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Qarshiyev. D.Mamatqulov), tuman Xalq ta’lim bo‘limi (N.Saparova), tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi (M.Bekova), tuman tibbiyot birlashmasi (D.Kamalova), Turizm va sport bo‘limi (M.Ne’matov), Madaniyat bo‘limi (A.Xudayberdiyev)
	VI. 2022/2023 yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini g‘amlash bo‘yicha chora-tadbirlar		
18.	Moliyaviy ahvoli barqaror bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga **bank kreditlari o‘z vaqtida ajratilishini** va ularning maqsadli ishlatilishini ta’minlash.	doimiy ravishda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Nazarov), ATB “Agrobank” tuman bo‘limi (H.Sulaymonov), AT Xalq banki” tuman filiali (A.Mardonov)
19.	Muhtoj oilalarni kuz-qish mavsumi uchun zarur oziq-ovqat va dori vositalari zaxiralari bilan taьminlash.	2022-yil oktyabrь	Tuman hokimining o‘rinbosari (U.Nazarov) tuman tibbiyot birlashmasi Bosh vrachi (D.Kamalova)
	VII. Chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish		
20.	Komissiya tomonidan 2022/2023 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning holati yuzasidan tahliliy ma’lumotlarni viloyat shtabiga taqdim etib borish.	har hafta yakuni bilan	Tuman hokimining o‘rinbosari (Q.Qarshiyev), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (B.Xasanov)
21.	Tuman iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati va natijalarini, jumladan: **aholini suyultirilgan gaz va ko‘mir bilan ta’minlash** masalalarini; mavsumga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishdakamchiliklargayo‘l qo‘ygan tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari faoliyatini **ommaviy axborot vositalarida** keng yoritib borilishini ta’minlash.	doimiy ravishda	Tuman hokimligi axborot xizmati (O.Sonniboyev), “Pastdarg‘om haqiqati” gazetasi (B.Shukurov)

Pastdarg‘om tuman hokimining
2022 yil 9 noyabrdagi
482-7-101-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tumanda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’yektlari va ko‘p kvartirali turar joy fondini 2022/2023 yillar kuz-qishdavrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

№	*Ismi va Familiyasi*	*Lavozimi*
1.	Q.Qarshiyev	tuman hokimining o‘rinbosari, *komissiya raisi*
2.	D.Mamatqulov	tuman hokimining o‘rinbosari, *komissiya raisi o‘rinbosari*
3.	A.Mamadaliyev	tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, *komissiya raisi o‘rinbosari*
4.	B.Xasanov	Tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i v.b, *komissiya kotibi*
5.	A.Yuldashev	tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i
6.	N.Saparova	tuman Xalq ta’limi bo‘limi mudiri
7.	A.Karimov	tuman hokimligi moliya bulimii mudiri
8.	D.Kamalova	tuman markaziy shifoxonasi bosh vrachi
9.	M.Bekova	tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i
10.	B.Nurmuhammedov	tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i
11.	Sh.Mirzayeva	tuman DSEOM bosh vrachi
12.	A.Kandaharov	tuman elektr ta’minoti korxonasi rahbari
13.	A.Ashurov	“Hududgaz Samarqand” filiali Pastdarg‘om tuman boshlig‘i
14.	B.Hudoynazarov	“Samarqand suv ta’minoti” MCHJ tuman filiali boshlig‘i
15.	H.Sulaymonov	ATB “Agrobank” tuman filiali boshlig‘i
16.	I.Abdullayev	tuman FVB boshlig‘i
17.	B.Bazarov	tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i
18.	A.Xudayberdiyev	tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i
19.	Sh.Amanov	“Pastdarg‘om kommunalchi” boshqaruv kompaniyasi rahbari

Izoh: Komissiya tarkibiga joylardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari ham kiradi.

Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning o‘rniga yangi tasdiqlangan xodim

komissiya a’zosi hisoblanadi.